

## O'ZBEK TILIDAGI HARAkat MAZMUNLI SLENGLAR

**Rasulov Namoz**

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi.

**Akbarova Aziza**

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada sotsiolektlardan biri slenglar, ularning jahon va o'zbek tilshunosligidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. O'zbek yoshlari orasida ommabop qo'llanilayotgan ayrim fe'lli slenglar mazmuni va qo'llanish doirasi haqida daliliy fikrlar keltiriladi. Slenglar standart bir tilda so'zlashuvchi aholining yirik qismini tashkil etuvchi yoshlar nutqi hisoblanib, ularning tilda o'rganilishi jamiyatdagi til taraqqiyotini kuzatishning samarali omili hisoblanadi. Slenglarni ilmiy tadqiq qilish vaqt o'tishi bilan yoshlar ongida til va til unsurlarining o'zgarishini kuzatishga yordam beradi. Tilning zamonaviylashuv jarayoni va boshqa tillar bilan aralashuvi yoshlar nutqida namoyon bo'lishini hisobga olsak, ushbu sotsiolektning jamiyat va til hayotini bevosita bog'liqlikda o'rganishda naqadar muhim omil ekanligini his qilish mumkin.

**Kalit so'zlar:** til, jamiyat, sotsiolingvistika, dialekt, sotsiolekt, adabiy til, argo, jargon, sleng, lug'at.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается один из социолектов-сленгов, их место в мировом и узбекском языкознании. Представлены доказательные мнения о содержании и сфере применения некоторых глагольных сленгов, широко используемых среди узбекской молодежи. Сленги — это речь молодых людей, составляющих значительную часть стандартного одноязычного населения, и их изучение является эффективным фактором контроля языкового развития в обществе. Научное изучение сленга помогает наблюдать за изменением языка и языковых элементов в сознании молодых людей с течением времени. Учитывая тот факт, что в речи молодежи проявляется процесс языковой модернизации и смешения с другими языками, можно почувствовать, насколько важен этот социолект при изучении жизни общества и языка в непосредственной связи.

**Ключевые слова:** язык, общество, социолингвистика, диалект, социолект, литературный язык, сленг, словарь.

**Abstract:** this article examines one of the sociolects-slans, their place in world and Uzbek linguistics. Evidence-based opinions on the content and scope of some verbal slangs widely used among Uzbek youth are presented. Slang is the speech of young people who make up a significant part of the standard monolingual population, and their study is an effective factor in controlling language development in society. The scientific study of slang helps to observe the changes in language and linguistic elements in the minds of young people over time. Considering the fact that the speech of young people shows the process of linguistic modernization and mixing with other languages, one can feel how important this sociolect is when studying the life of society and language in direct connection.

**Keywords:** language, society, sociolinguistics, dialect, sociolect, literary language, slang, dictionary.

Til va jamiyat tushunchalari ma'no anglatish nuqtayi nazaridan farqli ma'nolarni ifodalasada, bir-biri bilan uzviy bog'langandir. Tilni xalq yaratadi va o'z navbatida, u jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas ohangda takomil topib boradi. Xalqning madaniy va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti o'z izlarini, birinchi galda, tilda qoldiradi. Shu bois, jamiyatdagi har qanday o'zgarish, birinchi navbatda, tilda aks etadi. [I.Yo'ldoshev va boshq. 2007. 192 b.]

Tilda adabiy til va dialekt farqlanganidek, o'z navbatida dialekt atamasi ham ikki turda: hududiy va ijtimoiy farqlanadi. Ijtimoiy dialekt sotsiolingvistik termin sifatida sotsiolekt atamasi bilan yuritiladi. Sotsiolekt atamasi XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli sotsiolekt hisoblanadi. [Sh.Usmanova va boshq. 2014. 85 b.]

Sotsiolekt termini ostida "argo", "jargon", "sleng" tushunchalari birlashtiriladi. E'tiborli jihati shundaki, ushbu atamalar qator manbalarda bir-biriga sinonim qo'yiladi. Ayniqsa, sleng atamasi va tushunchasi paydo bo'lganidan keyin jargon tarkibida bir narsa yoxud argoga qiyosan tahlil qilina boshlandi. Keyingi yillarda slenglarning o'rganilishiga e'tibor kuchaya boshlaganini ham shu o'rinda ta'kidlab o'tish joiz.

Sleng inglizcha "slang" so'zidan olingan. Unga haligacha muayyan bir ta'rif mavjud emas. Ingliz tilshunosligida 1756-yilda ilk bor qo'llangan bu atama omi va savodsiz xalq leksikoni sifatida qaralgan. XIX asr boshlariga kelib endi sleng termini quyi tabaqa vakillari nutqi sifatida e'tirof etilsa-da, standart madaniyatli tabaqa nutqidan past leksika sifatida e'tiborda bo'ladi. Turli lug'atlar, xususan, ingliz tilidagi lug'atlarda slengga "jargon"ga yaqin yoki aynan jargon atmasining ta'rifi beriladi. Fransuz tilida bu atamaning aynan muqobili argo bo'lsa, turk tilida argo, jargo va slenglar bir atama – argo ostida birlashtiriladi. Ba'zi lug'atlarda aynan quyidagi ta'rifni uchratish mumkin: juda norasmiy hisoblangan so'z va iboralardan iborat bo'lgan, yozma nutqdan ko'ra og'zaki nutqda keng tarqalgan va odatda ma'lum bir kontekst yoki odamlar guruhi bilan chegaralangan til turi. [<https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/slang>]

Rus tilshunoslaridan biri V.Belikov: "Sleng g'arb lingvistik madaniyati uchun xarakterlidir. Mazmunan u jargon atamasiga yaqin turadi", – deydi. [В. И. Беликов, 2001: 317 стр.] Ko'p tillarda bo'lgani kabi rus tilida ham sleng uchun lingvistik qoida jargon atamasining izohi bilan bir xil.

Jahon tilshunosligida qayd etilgan ta'rif va tavsiflarni qiyoslagan holda o'zbek tilshunosligidagi sleng tushunchasini argo va jargondan farqlashimiz mumkin:

- slenglar umumtil va dialektal xarakter kasb qila oladi, argo va jargonlarda bu xususiyat mavjud emas. Masalan, *dimka bermoq* slengi Buxoro hududida keng qo'llanishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. (Dimka bermoq – dimedrol bermoq *uxlatmoq slengi* bilan sinonimlik hosil qilib, "aldab ketmoq" ma'nosida qo'llanadi);

- slenglar, asosan, disfemik xarakterda bo'ladi, argo va jargonlarda esa bu toifalanish kuzatilmaydi.

- slenglar arxaik va neologik xususiyatlarga ega. Ba'zi slenglarning oralarida o'n yillik farq bo'lgan yoshlar o'rtasida ham qo'llanmasligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, *strelka (uchrashuv)* slengini bugungi kunda arxaiklashayotgan deb ko'rsatishimiz mumkin.

- bir slengning valentlik imkoniyati uning turli ma'nolarni anglatishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, *tepmoq* slengi *Endi tepdimi?* Gapida *tushunmoq* ma'nosida qo'llansa, *quloqqa tepmoq* birikuvida esa *aldamoq* ma'nosida ishlatilgan.

- slenglar o'zaro sinonimlik hosil qilishi ham mumkin. Masalan, *sochib tashlamoq* slengi *yormoq* slengi bilan ma'nodosh; *uxlatib ketmoq*, *stalbani ushlatib ketmoq*, *kiydirib ketmoq* slenglari o'zaro sinonim ekanligini kuzatish mumkin.

- slenglar aslida til tarkibidagi leksikaning ko'chma ma'no hosilasi hisoblanadi. Shuningdek, ma'lum tilning izohli lug'atida so'z tarkibidagi metoforik usul orqali ko'chgan ma'nolar ham sanab o'tiladi. E'tiborli jihati shundaki, O'zbek tilining izohli lug'atida so'zlarning ko'chma ma'nolari qatorida slenglarni uchratmaymiz. Masalan, *uxlamoq* fe'li O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izohlanadi:

1) uyquga ketmoq, uyqu holatida bo'lmoq. *Bola... goh u ishga, goh bu ishga yugurar, kechalari esa holdan toyib, horib, dong qotib uxlar edi.*

2) ko'chma: tinch holatda bo'lmoq. *Og'ir sukunatga cho'mib uxlardi qishloq.*

Bizningcha, slenglarning yuqorida sanab o'tilgan o'ziga xos jihatlari uni yondosh hodisalardan, xususan, jargon va argodan farqlaydi.

O'zbek tilshunosligidagi sotsiolingvistikaga oid darslik va qo'llanmalarda sleng atamasi quyidagicha izohlanadi: Sleng – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og'zaki nutqida qo'llanadigan, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'z va iboralar. [Sh.Usmanova va boshq. 2014. 85 b.]

Sleng adabiy tildan farqli ravishda til talablariga javob bermaydi, u, asosan, o'smirlarning ko'cha tili hisoblanadi. Lekin bu ta'rif bilan uni faqat yoshlarga tushunadi deyish xato. Ba'zi slenglarni jamiyatda ham yoshlar, ham kattalar qatlami tushunishi mumkin. Bu slenglarning ommalashuvi bilan bog'liq jarayon. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda 36 millionli O'zbekiston aholisining 65 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Ularning nutqida qo'llaniladigan so'z va iboralarning turli vositalar: ijtimoiy tarmoqlar, ko'cha va oila suhbatlari orasida ishlatilishi asnosida tarqalish imkoni ham yuqori. Ba'zi slenglarning ommalashmasligiga asosiy sabab esa ularning ma'nosi anglashilmay qolishidir, chunki slenglar ko'chma ma'noda qo'llanadi. Ya'ni qo'llanilayotgan biror so'z lug'atidagi izohidan tubdan yoki qisman farqlanadi.

Yoshlarning nutqidagi bu slenglar grammatik jihatdan turli so'z turkumlariga oid. Ularning ko'pchiligini mana shu so'z turkumidagi leksika tashkil qiladi, deb qat'iy hukm berib bo'lmaydi. Quyida esa fe'l turkumiga oid ayrim slenglar va ularning mohiyatini tahlil qilib chiqamiz. Aytib o'tish joizki, harakat mazmunidagi slenglar ot va sifat xarakteridagi slenglardan miqdoran ko'p va ular, asosan, tarkibli tarzda qo'llanadi.

*Chopmoq*: darsni chopmoq kabi tarkibli yo mustaqil tarzda qo'llanadi. Darsni chopmoq tarzida kelganda undan voz kechib, boshqa mashg'ulot bilan shug'ullanmoq ma'nosida qo'llanadi. Mustaqil tarzda qo'llanganda esa "yomon qiladi", "dabdalamizni chiqaradi" (masalan, Domla endi hammamizni chopadi) ma'nosi anglashiladi.

*Kalla qo'ymoq*: "ishni buzib qo'ymoq", "vaziyatni ostin-ustun qilmoq" ma'nolarida qo'llanadi.

*Surmoq* "ketmoq, yo'qolmoq" ma'nolarida ishlatiladi va bu slengda, asosan, buyruq ohangi ustunlik qiladi.

*Chizmoq* tarkibli tarzda quyonni chizmoq sifatida ishlatiladi va “qochib qolish” ma’nosida qo‘llanadi.

*Yemoq/yemaslik* voqelikka mos gap yoxud narsani ishlatish va qo‘llashni anglatadi.

*Yedirmoq* “muomalasiga loyiq javob bermoq” ma’nosida ishlatiladi.

*Yoqmoq: 01ni/ jinnini* so‘zlari bilan tarkibli qo‘llanadi. 01 ni yoqma – toshkentlik bo‘lib olma; jinnini yoqmoq – tushunmaganga olmoq ma’nolarida ishlatiladi. Shu sleng tarkibida dialektal xarakterdagi sleng borligini yana bir bor ko‘rishimiz mumkin.

*Uxlatmoq* “o‘g‘irlab o‘zlashtirmoq”; *uxlatib ketmoq* esa “aldamoq” ma’nosida ishlatiladi. Faqat bu “o‘g‘irlik” chinakamiga bo‘lmaydi. Yangi kiyim olgan odamga ham yaqin o‘z doirasidagilar “qayerdan uxlatding?” tarzida ishlataveradi.

*Sochib tashlamoq* slengi “biror ishni qoyilmaqom qilib bajarish” ma’nosida keladi.

*Kiydirmoq* “aldamoq” ma’nosida ishlatiladi. Masalan, kiydirib ketdi – aldab ketdi.

Bugungi kunda o‘zbek tilida qo‘llanadigan bir qator fe’l mazmunidagi slenglarga yana misollar keltirish mumkin: ramkada bo‘lmoq, xaltaga kirmoq, yax bo‘lmoq, bechorani yasamoq, qurimoq, dam bermoq, stolbani ushlatib ketmoq, dimka bermoq, shamol bo‘lmoq, sirpanmoq, xit qilmoq, hit qilmoq//bo‘lmoq, ekib qo‘ymoq, erimoq, pishmoq, yuvmoq, pat(i)ni tashlamoq, tepmoq, chirimoq, bezzvukda gaplashmoq, gromka bermoq, omin bo‘lmoq, hoji ona//hoji akani yoqmoq, lox qilmoq, sindirmoq, quritmoq, bloklamoq, gazini bermoq, trendga chiqmoq, qusmoq, tug‘moq, o‘ramoq, chorniyya tiqmoq//kirmoq, yormoq, shmon qilmoq, yeb qo‘ymoq, qovun tushirmoq, tarvuz yutmoq, sho‘xlik qilmoq, suv quymoq, paxta qo‘ymoq

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva, R.R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili [darslik] Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 267
2. Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G., Sotsiolingvistika (o‘quv qo‘llanma), Toshkent: Universitet, 2014. – B. 85
3. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘., Tilshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma), Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007. – B. 192
4. В. И. Беликов, Л. П. Крысин. Социоллингвистика. Учебник. Москва, 2001. 317 ст.
5. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati \(gov.uz\)](http://gov.uz)
6. Oxford English Dictionary. Oxford University Press. Retrieved March 4, 2010.
7. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/slang>